



O‘ZBEK BADIY KINEMATOGRAFIYASIDA QAHRAMON RUHIYATI VA O‘ZLIKNI ANGLASH MUAMMOSI

Dilshod Salomov

"O‘zbekzargarsanoati" uyushmasi

Mahalliy ishlab chiqarish, tashkiliy ishlar va ilmiy faoliyat masalalari bo‘yicha - rais o‘rinbosari

Annotatsiya

O‘zbek tilida:

Ushbu maqolada o‘zbek badiiy filmlarida inson ruhiyati va shaxs muammolarining talqini masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot obyekti sifatida S. Nazarmuhammedovning "Yolg‘iz yodgorim", J. Qosimovning "Suv yoqalab" va Y. To‘ychiyevning "Ilova" filmlari tanlab olingan. Muallif ushbu kinokartinalar misolida qahramonlarning o‘tmish bilan yuzlashishi, aybdorlik hissi, ijtimoiy qobiqdan chiqish va o‘zlikni anglash kabi psixologik holatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, filmlardagi ramziy obrazlar, tush epizodlari, ranglar gammasi va musiqiy yechimlarning qahramon ruhiyatini ochib berishdagi badiiy vazifasiga alohida urg‘u beriladi.

Rus tilida:

В данной статье рассматриваются вопросы интерпретации человеческой психики и проблем личности в узбекских художественных фильмах. В качестве объекта исследования выбраны фильмы С. Назармухаммедова «Единственное воспоминание», Д. Касымова «У воды» и Я. Туйчиева «Приложение». На примере этих кинокартин автор анализирует такие психологические состояния героев, как столкновение с прошлым, чувство вины, выход из социальной оболочки и самопознание. Особое внимание уделяется художественной роли символических образов, эпизодов сновидений, цветовой гаммы и музыкальных решений в раскрытии внутреннего мира персонажей.

Tayanch so‘zlar

O‘zbek tilida: *o‘zbek kinosi, psixologizm, ichki ziddiyat, o‘zlikni anglash, badiiy talqin, ramziylik, tush epizodlari, mualliflik kinosi, intellektual film, ruhiy evrilish.*

Rus tilida: *узбекское кино, психологизм, внутренний конфликт, самопознание, художественная интерпретация, символизм, эпизоды снов, авторское кино, интеллектуальный фильм, духовная трансформация.*

O‘zbek kinosida psixologik filmlar garchi kam yaratilgan bo‘lsada, ular o‘ziga xos xususiyatga ega. Xususan, ba’zi filmlarda qahramonlar o‘z-o‘zi bilan ziddiyatda bo‘lsa, boshqalarida jamiyat, atrof-muhit bilan kurash olib borishadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ruhiyatida sodir bo‘ladigan evrilishlarda yanada yorqin namoyon bo‘ladi. Ushbu bobda



ichki ziddiyati asosida o'zligini anglashga harakat qiluvchi obrazlar bosh qahramon sifatida ko'rsatilgan filmlardagi shaxs muammolari o'rganiladi.

Inson — taqdiridagi fojialarni yolg'iz, kimsasiz qolganida aniq va yaqqol anglaydi, tahlil qiladi va tushunadi. Biroq bu holat umrning so'nggida sodir bo'lsa, iztirob yanada og'irroq chekiladi. Sobir Nazarmuhammedov tomonidan tasvirga olingan “Yolg'iz yodgorim” filmi hayotning shavqatsiz sinovlariga qaramay, o'z e'tiqodi va tutumlariga sodiq holda yashagan, oqibatda esa hech bir vorissiz, davomchisiz qolib ketgan chol haqidagi mahzun kino-qissa. Chunki, film bosh qahramoni nafaqat Adash Karvon balki, sevgi otashida kuygancha o'zini yo'qotib, odam o'ldirish kabi mudxish ishga qo'l urgan Sattor ham. Bu ikki personajning ham o'ziga xos ruhiy bezovtaliklari bor. Xususan, filmda Adash Karvon mehnatkash, bir so'zli, birovga yukini ortmaydigan, halol inson bo'lib ko'rinish beradi. Anglashiladiki, u bir umr shunday yashagan. Shu sababdan qo'ni-qo'shni, qishloq ahli uni hurmat qiladi, ko'ngil so'raydi, holidan xabar oladi. U ham eshigini qoqqanga, labbay, deya javob qaytaradi. Adash Karvonning atrofida gilar bilan hech bir muammosi yo'q. Biroq, og'riqlari bisyor. Shunday og'riqlarki — malhamsiz, davosiz.

Film mualliflari kelajakdan hech bir umidi yo'q, o'limiga rozi, shunga qaramay o'zini tutib, odatiy hayot tarzini yashayotgan o'ta murakkab harakterni tasvirlashar ekan, undagi soddalik va kamtarlikni bo'rttirib ko'rsatishga harakat qilishadi. Tabiiyki, qari va yolg'iz kimsaning xayollarida yashab o'tilgan umr – kino tasmasidek aylanadi. Tasma lavhalarida esa tuzatib bo'lmas xatolar, pushmonlarga sabab bo'luvchi voqealar bot-bot xotirlanadi. Bu holat kishi ruhiyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, tushlardagi qo'rqinchli voqeliklarni yuzaga keltiradi. Xususan, filmdagi tush epizodlari – qorda o'yin o'ynayotgan bolalar, qish kuni so'rida o'tirgancha ularni kuzatayotgan Oynisa va Adash Karvon, Oynisaning noodatiy choy qo'yib berishi-yu, qop-qora rangdagi ko'z-qovoqlari yoki Oynisaning kech bo'lganda hovlida chiroq ko'tarib yurishi va hokazo. Film tomoshabini mazkur epizodlarning tush yoki o'ngda sodir bo'layotganini dastlab anglamaydi. Film mualliflari Adash Karvon hayoti ro'yo va reallik orasida o'tayotganini, buni anglashga cholning o'zi ham qiynalayotganini shu yo'l bilan ifodalashga harakat qilishadi. Adash cholning qalbini tirnaydigan bir necha armonlar mavjud bo'lib, o'zidan keyin nasli davom etmayotgani, ortidan uning haqqiga duo qiluvchi avlod qolmayotganidan qattiq qayg'uda edi. Agar qachonlardir Naim melisaning gapiga kirib, qamoqqa kirishdan avval qochganida, hammasi boshqacha bo'lishini, kampiriga ko'p jabr qilganlarini o'ylab, bir ozor cheksa, yolg'izgina o'g'li Nasibbekning o'limi uni takror larzaga keltiradi. Biroq, isyon qilishga iymoni yo'l qo'ymaydi. Barcha to'g'yonlar Adash cholning ichki olamida yuz berar, qyun bo'lar, vulqon otilar, ammo aslo Taqdir-i Ilohiydan yuz burmas, aksincha, sajdaga bosh qo'yardi. Faqat, ko'nglining tub-tubida, o'zi kechirganman, deyishiga qaramay, saqlangan, o'zi ham anglamas, ginasi bor. Adash Karvon o'g'lining qotili Sattorni kechirmagandi.

Inson ulg'ayarkan, ko'ngilda muhabbat kurtaklari nish ura boshlaydi. Ishq olamiga qadam ranjida qilgan kishi, bu makonning turfa sinovlarini boshidan o'tkazib, undagi jang-u jadalda mardona turishi talab etiladi. Har kim ham oshiq bo'lishi mumkin, biroq har kimga,



ham o'z suyganining sevgisi nasib etavermaydi. Sattor shunday, mag'lub oshiq. Nasibbek – g'olib. Rad etilish kabi og'ir savdo Sattorning qalbini tilka-pora qilgan, o'zligini soniyalarga bo'lsada unuttirishga majbur etadi. O'sha soniyalarda Sattor Nasibbekning qotiliga aylanadi. Sattor qilib qo'ygan ishining oqibatini tezda anglaydi. Buni film rejissori Sattorning xazonlar ichra yugurib ketayotgani bilan ifodalashga intiladi. Sattor taqdirining keyingi davri – hali ko'klamni his etmay, kuzga ro'baro' bo'lgan niholga qiyos etilsa, Nasibbek umri — novdasidan ayrilgan, xazonga aylanib, yerga yuzlashgan barg kabi fojiali tus oladi. Albatta, bu kabi ramziy topilmalar filmning kinematografik ahamiyatini yanada orttiradi. Sattor rolini ijro etgan aktyor Ulug'bek Muzaffarov o'z vazifasini shu qadar muvaffaqiyatli talqin qilganki, tomoshabin uning qilmishini ko'rib-bilib tursa-da, Sattorni yomon ko'rmaydi. Uni tushungisi, taskin bergisi keladi. Xuddi shunday Adash Karvonga ham.

Kinoasar bosh qahramonlarining ichki bezovtaligi film musiqalarida aks etadi. Dmitriy Yanov-Yanovskiy tomonidan bastalangan musiqalar Adash Karvon va Sattorning ko'ngil kentiklari, armonlari va pushaymonlari nolasini kuyga solgandek tuyuladi go'yo. Operator kadrlarining sekin, uzilmay harakatlanishi esa qahramonlarning yuzidagi dard mulohazasini, ruhiy iztiroblarini yanada yaqqolroq tushunishga undaydi.

Film ijodkorlari filmga asos bo'lgan Xayriddin Sultonovning “Yozning yolg'iz yodgori” qissasidan farqli ravishda film finalida boshqa bir g'oyani ilgari surishadi. Xususan, qissada inson — uning yodi, armoni bilan azizligi ifodalansa, filmda qalb xotirjamligiga erishish shaxs ruhiyatini poklashi nazarda tutiladi.

Xulosa o'rnida, inson vijdoni bilan suhbatga kirisharkan o'z-o'zini ayovsiz taftish qilishi mobaynida xatolarini anglab, ularning oqibatlarini tushunadi — ruhiy xotirjamlikka erishishning eng sodda yo'li esa aslida shu. Garchi, tushunish yo'qotilgan lahzalar va kishilarni ortga qaytarmasa-da, insonning taskin topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Adash Karvon va Sattor personajlari dastlab, o'z xatolarini, so'ngra bir-birlarining ahvollarini tushunibgina bir-birlariga duch keladilar. Bu uchrashuvning sokinlik maskani — qabristonda ro'y berishi ham o'ziga xos obrazli yakun sifatida e'tirof etilishga arziydi.

Jahongir Qosimovning “Suv yoqalab” badiiy filmi ham mavzu jihatidan “Yolg'iz yodgorim” filmiga o'xshab ketadi. O'zi umuman O'zbek kinematografiyasida yaratilgan psixologik filmlarning aksarida yoshi ulug', yashab o'tgan umridan xulosa chiqarib, qilgan xatolarini anglab, ularning oqibatlariga yuzma-yuz kelayotgan qariyalar tasvirlanishi ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat. Albatta, har qanday inson xatoga moyil, biroq o'sha xatoning natijasiga umrning so'nggida ro'baro' kelinishi, qattiq tushkunlikka sabab bo'ladi. “Yolg'iz yodgorim” filmi bosh qahramoni Adash Karvon ta'biri bilan aytganda esa, armon yomon narsa. Chunki, vaqt o'tgach ba'zi ishlarni o'nglashning iloji bo'lmaydi.

Suv yoqalab kelish jarayoni o'ziga xos obrazli ifoda bo'lib, unda Bolta Mardonning shaxsiyati, karakteri hamda taqdir chizgilariga aniqlik kiritiladi. Bolta Mardon — o'jar, bir so'zli, degani-degan, aytgani-aytgan bo'lgan sobiq rais, to'g'ri so'z va atrofdagilariga mehribon inson. Uning oilasi va qishloq ahli bilan munosabatida o'ziga xos ta'vozeligi va





magʻrur karakteri yanada yorqinroq koʻrinadi. Dastlab xotini va oʻgʻillari bilan boʻlgan epizodda uning anʼanalarga hurmat bilan yondashishi, koʻzi ojiz chol bilan muloqotida yumshoq feʼlligi, choyxona hamda taʼziyada atrofdagilarga sir boy bermaydigan, boshqalar bilan masofa saqlashni bekami-koʻst eplaydigan, haqiqatni yuzga aytuvchi, oilalardagi tushunmovchiliklarni oʻz salobati va oqilligi bilan bartaraf etadigan, belkurak bilan unga hujum qilinsada, hamlaga tik boqqan qoʻrqmas va dovyurak inson ekanligi namoyon boʻladi.

Tushda marhum ota tomonidan tut daraxtining qurib qolgani sabab dakki berilishi, Bolta Mardonni bezovtalaydi. Holbuki, uning hovlisida qurib qolgan tut yoʻq. Unda marhumning jigʻibiyronligidan sabab nima?! Jumboqli tushdan koʻngli xira tortgan bosh qahramonimiz suv yoqalab, bogʻi uchun obi hayot olib kelishga ahd qiladi. Filmdagi toʻgʻri chiziqli voqealar esa ayni shu palladan boshlanadi.

Filmda tipik oʻzbek oilasi tasvirlangan boʻlib, ota-onaning rayiga qarshi bormaydigan farzandlar va ularning taqdirida keyinchalik roʻy berishi mumkin boʻlgan voqealarga urgʻu berilgandek taassurot uygʻonadi. Ota-onalar farzandlariga yomonlikni ravo koʻrmasliklari bor gap, biroq ularning tanlovi va koʻngil tanlovi oʻrtasidagi farq ehtimoliy pushaymonliklarni keltirib chiqarishi mumkin-ki, bunday oqibatlardan hech kim ixotalanmagan. Huddi shunday Bolta Mardon ham. Dastlab oʻgʻli Qodirning qishloqdagi eri xorijga ketgan ayol bilan nooʻrin xatti-harakatiga guvoh boʻlib, oʻgʻlini kaltak bilan jazolaydi. Soʻngra qizi bilan koʻrishgan ota qizining besaranjom va bezovtaligini sezadi. Suhbatdan kuyovning qamalgani oydinlashadi. Ayni shu epizodda Bolta Mardon nigohida aybdorlik hissi paydo boʻladi. Anglashiladiki, qizini ham oʻz xohish irodasiga koʻra turmushga bergan, biroq farzandining oilasi tinch emasligi, jigarbandining betoblighi va eng ogʻiri bularning barchasini qizi undan yashirayotgani Bolta Mardonni qattiq iztirobga soladi. Uning iztirobi keyingi epizodlarda yanada ortadi. Bu safar u qachonlardir oʻzi oshiq boʻlgan ayolga yoʻliqadi. Jumboqli tushidagi tutni ham aynan shu ayolnikida uchratadi. Ayol yolgʻiz oʻzi yashar, eri olamdan oʻtgan, farzandlari yoʻq edi. U bilan suhbat asnosida oʻtmish, yoshlik davrlari yodiga tushadi, ammo yuqorida taʼkidlanganidek, xarakteridagi sir boy bermaslik hislati bilan oʻzini oʻta sovuqqon koʻrsatadi. Bolta Mardon rolini ijro etgan Erkin Komilov oʻz qahramoni harakterini shu qadar mukammal oʻzlashtirganki, obrazining ruhiy tebranishlarini nigohi orqali bayon eta oladi. Sodir boʻlgan bu tasodifiy uchrashuv, Bolta Mardonning tashqi koʻrinishidan, yuragigacha yetib borgan sovuqqonlikni bir zumda eritib yuboradi. Endi u tongda suv yoqalab chiqib ketgan qattiqqoʻl ota yoki oʻziga qilingan adolatsizlikni oʻz zurriyodlari taqdirida qaytarib kelgan prinsipial shaxs emas, balki farzandlarining taqdiridagi baland-pastlikni oʻz tanasida his etgan, qachonlardir unutib yuborgan tuygʻularini qayta tuya olgan bagʻrikeng inson edi. Bolta Mardon qaygʻusining kattaligi oʻgʻli Qodir bilan dialogida aniqroq koʻrinadi. Xususan, oʻsha ayolda yoshligidan koʻngli borligi, lekin aynan ota tomonidan rozilik berilmaganiga ishora sifatida aytilgan “oʻziz”, Bolta Mardonning “ota paygʻambar boʻbtimidiki”, deya javob qaytarishi aslida Qodirga emas, Bolta Mardonning oʻz-oʻziga eʼtirozi edi. Har qanday koʻngil bilan





hisoblashish zarur. Shu hayot ekanda, deb yashab yurish aksar hollarda insonning baxt atalmish tuyg'uni unutib qo'yishi, o'zini maishiy muammolar girdobiga g'arq etib, o'zligidan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Ayni shuni tushunib yetgan Bolta Mardon o'g'li Botirga singlisining qizini olib berish fikridan qaytadi. Bolta Mardonning Botirga aytgan gaplari esa, e'tiborga molik: Lekin, uylansang shunday birini topib xotin qilginki, sira-sira joningga tegmasin, nechchi yil o'tsayam. Bunisi endi har kimga ham nasib qilavermas ekan. Bo'lmasa, bu savdo bir umrlik azob. Mana shu gapim esingdan chiqmasin. Bu gaplar Bolta Mardonning nolishi emas, balki umri davomida yuzlashishdan qo'rqqan haqiqatiga tik boqib, tan olishi edi. Uning ushbu so'zlari bu fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi: Noligan noshukr, deydilar. Enangni aytamanda. Yaxshi xotin, yuvvosh. Mana, senlarni tug'ib berdi, katta qildi, o'zim ham undan biron yomonlik ko'rmadim. Lekin, ko'ngil qurg'ur hech... bilmadim, nimaga... "Suv yoqalab" badiiy filmida Bolta Mardonning jumboqli tushiga monand bastalangan musiqa kinoasar kayfiyatini uzviy ravishda tomoshabinga yetkazadi. Musiqadagi sirlilik inson ruhiyatini taftish qilishga yordam berib, u duch kelgan savollardan chalg'itmaydi. Aksincha, ular bilan yuzlashib, xotirjam javob topishiga ko'maklashadi. Film tasvirlari ham musiqa bilan uyg'unlashgandek. Voqealar dinamikasining sustligi sabab, ba'zida statik va ba'zida uzilmas kadrlar tomoshabinni zeriktirib qo'ysada, o'z vazifasiga ko'ra, film mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq manzaralaridagi sokinlik, tabiat xodisalari - tong, kun, oqshom va tun, chaqmoq chaqib, yomg'ir yog'ishi Bolta Mardonning ichki olami va unda ro'y berayotgan psixologik holatlarning tasviri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida, "Suv yoqalab" filmi inson har doim ko'ngilga yaqin biriga ehtiyoj sezib, unga talpinib yashashi, umr mobaynida muhabbatning odamga nechog'lik kerakligi hamda boshqalarning ham tuyg'ulari bilan hisoblashish zarurligi haqidagi noyob kinoasar.

Psixologik filmlar yaratish eng avvalo, inson ruhiyatini tadqiq etish, uning emotsional holatlarining sabablari hamda kishilar tushib qoladigan tushkunlik sabablarini o'rganish uchun kerak.

Yolqin To'ychiyev muallifligidagi "Ilova" filmi o'zining shakli jihatidan kino san'atining o'ziga xos bo'lgan turi – mualliflik filmi yoyinki, g'arb kinoijodkorlari ta'biri bilan aytganda, art-sinema, art-xaus sifatida o'zbek kinematografiyasi tarixidan alohida o'rin olgan kinokartinalardan biri, deya baholanishi mumkin. "Mualliflik kinosi – mavzu jihatidan originallik va individualikka asoslanadigan, tasvir uslubi, montaj usullarida rejissorning badiiy va g'oyaviy maqsadi ifodalanadigan kinofilm turidir"¹⁰. Intellektual filmlar odatda keng auditoriya uchun mo'ljallanmaydi. Filmda turli ramziy vositalardan foydalanilib, tomoshabin e'tibori ijtimoiy mavzular yoki shaxslarning psixologik holatiga qaratiladi. Filmdagi asosiy ziddiyat esa bosh qahramonning ichki olamida ro'y beradi. Intellektual filmlarning eng muhim jihati – u tomoshabinni o'ylashga, fikrlashga majbur

¹⁰ Omonmurodov Sh. Jahon kinosida "intellektual film"ning o'rni «Jahon adabiyoti» jurnali, 2018 yil, 12-sori



qiladi. “Ilova” esa huddi shunday film. Ma’lum bir bilimga ega bo’lmagan tomoshabin filmni tomosha qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Film bosh qahramoni Hamid o’zini – boshqalarga qaraganda yaxshiroq, kerakliroq, deb biladi. To’g’ri yashayotganiga ishonadi. O’zining hayoti risoladigidek ekanligiga shubha qilmaydi. Toki keyinchalik u bilan ro’y beradigan voqealar sodir bo’lmaguncha. Xususan, Hamidning hayotini muallif yunon mifologiyasi bilan bog’laydi. Hamidning ukasi Hamdam dastlab ular uchrashganida, o’rtadagi suhbatda o’limni aldamoqchi bo’lgan odam haqidagi afsonani yodga oladi, biroq batafsil aytib bermaydi. Tabiiyki, tomoshabin Hamdamning nima demoqchi ekanligini Gomerning “Iliada” dostonidagi Sizif haqidagi afsona bilan tanish bo’lmasa, tushunmaydi. Sizif haqidagi mifda aytilishicha, u ham ma’budlar qatorida bo’lgan. Uning otasi bo’lsa shamol ma’budi edi. Sizif o’zi bunyod etgan Korinf shahar-davlati hukmdori bo’lgan. U o’zini barcha podshohlar hatto, ma’budlardan aqlli va a’lo sanar, buni ko’rsatib qo’yish uchun juda ko’p xazina yiqqan, zeb-ziynat ichida hayot kechirardi. Hatto, o’lim ma’budi Tanat kelganida ayyorlik bilan uning qo’l-oyog’ini kishanlab, qamab qo’yadi. Shundan so’ng yer yuzida insonlar o’lmay yashaydigan bo’lishgan. Ma’budlarni ulug’lovchi, ularga mo’l-ko’l qurbonliklar qiluvchi dabdabali marosimlar yo’qoladi. Bundan ma’budlar norozi bo’lishgach, Zevs urush ma’budi Aresga “ayyor” Sizifni jazolashni buyuradi. Ares Sizifni yengib, o’lim ma’budi Tanatni kishandan ozod qiladi. Sizifni esa marhumlar mamlakatiga yuboradi. U yer osti dunyosi podshohi Aidni ham aldab, “meni bir kunga hayotga qaytarsang, xotinimga “marhumlar podshohiga juda ko’p mol-qo’y va noz-ne’matlarni qurbonlik qilgin”, deb buyuraman va tez qaytib kelaman”, deydi. Bu va’daga ishongan Aid Sizifni bir kunga hayotga qaytaradi. Sizif xotiniga Aid uchun qurbonliklar qilishni buyurmaydi va yana bazmu jamshidda rohatlanib yashayveradi. Bundan g’azablangan Aid yana Tanatni jo’natadi. Bu gal Tanat aldanmaydi. Sizif marhumlar olamiga yuboriladi va narigi dunyoda og’ir toshni tog’ cho’qqisiga dumalatib olib chiqishga mahkum etiladi. Sizif hech qachon toshni cho’qqiga olib chiqolmaydi – hech qachon maqsadiga yetolmaydi. U har safar toshni dumalatib, cho’qqiga yetay, deganda tosh yana pastlikka tushib ketaveradi. Dastlab ukasi doim hikoya qiladigan yunon asotirlarini uydirma, deb hisoblagan qahramon o’zi bilan ro’y beradigan holatlarni g’ayrioddiylikiga shubha qilmay qo’yadi. O’ta tartibli hayot kechiradiganlar, o’ta mas’uliyatli insonlarning o’z qobiqlari mavjud bo’lib, vaqt o’tgani sari ular bu qobiqdan chiqib ketolmaydilar. Bu esa bunday insonlarning asl shaxsiyatlarini namoyon etishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Hamdamning - akasi Hamidning hayotini tasvirlaganida ishlatadigan “tep-tekis cho’l uning hayoti” yoki qarama-qarshi holatda qolganida “ko’rolmaysiz meni”, “sizni kuchiz o’zizdan boshqa hammaga yetadi” kabi jumalardagi haqiqatlar Hamid tomonidan garchi tashqi holatda tan olinmagandek ko’rinsada, aslida u ich-ichidan o’zligini yo’qotib qo’rganini anglab, asliyatini topishga urinayotganiga guvoh bo’lamiz. Hamdamning yashash tarzi, karakteri Hamidga “olabo’ji”dek ko’rinishiga sabab esa, ma’lum bir komplekslarga ega insonning o’z chegaralarini buzib o’tib, erkin bo’lishga urinishlari besamar ketayotganidan. Erkinlik Hamid uchun Sizif intilgan cho’qqi. Biroq bu





cho‘qqiga yetish oson emas – bu kurashdagi raqobatchi esa uning o‘zi. U bu cho‘qqiga yetish uchun hatto ko‘chadagi toshni boshqa joyga olib qo‘yishga ham harakat qiladi, eplolmaydi. Hamid personajining shaxsiyatini yanada yorqinroq ifodalashda film mualliflari turli ramzlardan ham foydalanishadiki, bu film jozibasini orttirib, ma’nolar rang-barangligini yuzaga keltiradi. Masalan, Hamidni yashin urgach, ustaxonasidagi televizorlar yaqinlashganda yomon, uzoqlashganda yaxshi ishlaydi. Shunday paytda televizor ekranida nutq irod etayotgan nemis fashizmi yetakchisi Gitlarning paydo bo‘lishi bosh qahramonning ham ichki dunyosidan darak beradi. Chunki film avvalida ham, keyingi epizodlarda ham Hamid o‘zini boshqalardan alohida va yaxshiroq, deb bilar, boshqa haqiqatni tan olishni xohlamas, hatto tashqi ko‘rinishidagi charchoq va ojizlik bilan ro‘baro‘ kelmasligi uchun ish joyidagi ko‘zgularni yopib qo‘yadi. G‘ordagi holat esa uning ruhiy holatini to‘liq ochib beradi. U o‘zini yashin urganidan keyingi voqealarni – ilohiy bir jarayon, o‘zini esa tanlangan, deb o‘ylay boshlaydi. Biroq u duch kelgan aqlbovar qilmas tengsiz xilqat – aslida “birov pisand qilmaydigan” qo‘shnisi Umar bo‘lib chiqadi. Tomoshabin Hamidning alam bilan o‘zligini qidirayotgani, biroq qo‘li tekkani to‘kilib ketayotganiga guvoh bo‘ladi, bu Hamidning g‘azabini yanada orttirib, holsizlantirardi.

Ustaxonasi devoridagi kafellar ostida qolib ketgan so‘zana esa – Hamidning ma’lum bir chegarada, qobiqda yashayotganini, o‘z hayotini yashamayotganining, umr yo‘llari rangsiz va qorong‘ulikda o‘tib ketayotganining belgisi edi. Hamdamdan minotavr va labirint qissasini eshitgan Hamid o‘zini qutqarishga, o‘zi ham anglashga qiynalayotgan holatidan chiqib ketishga urinib ko‘radi. Dilrabo Mingboyevaning “Timsollar tilsimi” kitobida minotavr va labirintga shunday ta’rif beriladi: “Inson kirgach, chiqa olmaydigan uyni qurish fikri buqa boshli odamdan ham g‘alati tuyuladigan g‘oyadir, biroq bu ikki to‘qima bir-biri bilan uyg‘unlashdi, shu tariqa labirint obrazi minotavr obrazi bilan birikib ketadi. Tabiiyki, bunday dahshatli uyda faqat mahluqlar yashashi mumkin xolos”¹¹. Ayoli bilan munosabatlarining buzilishi, o‘z ishi borasida qobiliyatining tobora oqsab qolayotganligi, uning labirintini yanada chigallashtirgan bo‘lsa, hayot haqiqatiga tik boqmayotganligi, odamovi va jizzakiligi holatni yanada og‘irlashtirgandi. Filmida ajoyib epizod bor – Hamid labirintni o‘z qo‘llari bilan barpo etadi. Shaxs sifatida ham u o‘zi tushib qolgan labirint muallifi edi. Labirint ichidagi mahluq esa Hamiddagi haddan tashqari sarkashtalik va kibr edi. Shu o‘rinda film rassomi ishini alohida e’tirof etish zarur, sababi rassom tomonidan bosh qahramon ruhiyati, deyarli barcha kadrlar kompozitsiyasida, tanlangan ranglarda aks etgan. Film rassomi Hamid ruhiyatida yuz berayotgan holatni to‘q-qora, to‘q-kulrang ranglarida ifodalashga intiladi. Finalda esa bu ranglar o‘rnini yorqin, hayot va tiriklik belgisi bo‘lmish oq va yashil ranglar egallaydi. Film mualliflari tomonidan tanlangan Motsartning “Rekvium” musiqiy asari qahramon ruhiy holatidagi ziddiyat, kurash, kuch va ojizlikni namoyon etadi.

Mazkur kinoasar sodda qilib aytganda, o‘zlikni anglash qanchalar qiyin ekanligini, lekin kishi o‘zini tanigach, halovat topishi mumkinligi haqida. Filmida oddiy ko‘z bilan ko‘rish

¹¹Mingboyeva D. “Timsollar tilsimi”. Adabiyot-2022.



qiyin bo'lgan lavhalar ko'p, biroq ularni anglash, rejissorning topilmasini tushunish tomoshabinning salohiyatini belgilab berishi bilan birga kinematografiyaning tomoshaviylik xususiyatidan tashqari fikrlashga asos bo'luvchi, intellektual muhim san'at turi ekanligini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. **Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirzayev S. **O'zbek kinosi: tarix va zamonaviylik.** – Toshkent: Fan, 2016.
3. Abduqodirov A. **Kino san'ati va badiiy tafakkur.** – Toshkent: O'zbekiston, 2014.
4. Salayev F. **Zamonaviy o'zbek kinosida badiiy izlanishlar.** – Toshkent: Akademnashr, 2019.
5. Yuldasheva N. **San'at va jamiyat: ijtimoiy-madaniy tahlil.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.